

YURAK YETISHMOVCHILIGI: PATOGENEZI, KLINIKASI VA DAVOSI

Boymurodov Xo'jamurod

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash yo'nalishi, 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17305348>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurak yetishmovchiligining kelib chiqish sabablari, patofiziologik jarayonlari, klinik belgilari, tashxislash usullari hamda davolash tamoyillari yoritilgan. Yurak yetishmovchiligi tibbiyotda eng ko'p uchraydigan va o'lim darajasi yuqori bo'lgan yurak-tomir tizimi kasalliklaridan biridir. Maqolada zamonaviy diagnostika yondashuvlari, dori vositalari, profilaktika va sog'lom turmush tarzining ahamiyati haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yurak yetishmovchiligi, patogenezi, gipertenziya, infarkt, diuretiklar, yurak glikozidlari, kardiologiya, qon aylanish, ejection fraksiyasi.

Kirish: Yurak inson organizmining eng muhim hayotiy a'zolaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi — qon orqali kislorod va ozuqa moddalari yetkazib berishdir. Agar yurak bu vazifani to'liq bajara olmasa, butun organizm faoliyati izdan chiqadi. Shunday holat yurak yetishmovchiligi (YY) deb ataladi. Yurak yetishmovchiligi — bu yurak mushaklari (miokard) shikastlanishi yoki yurak yuklamasining oshishi natijasida qon aylanish tizimining buzilishi bilan kechadigan klinik sindromdir. Dunyoda yurak yetishmovchiligi bilan og'riqan bemorlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har 1000 kishidan kamida 10 tasi ushbu kasallikdan aziyat chekadi.

Asosiy qism. Yurak yetishmovchiligi turli yurak va tomir kasalliklari oqibatida paydo bo'ladi. Eng asosiy sabablari quyidagilar:

1. Ishemik yurak kasalligi – yurak mushagiga kislorod yetishmovchiligi.
2. Arterial gipertenziya – yuqori qon bosimi natijasida yurakka ortiqcha yuklama tushadi.
3. Miokard infarkti – yurak mushagining bir qismi nobud bo'lishi.
4. Yurak klapanlari nuqsonlari – qon oqimining normal yo'nalishini buzadi.
5. Miokardit – yurak mushagi yallig'lanishi.
6. Aritmiyalar – yurak ritmining buzilishi, ayniqsa bradikardiya va tahikardiya.

Bundan tashqari, surunkali anemiya, qalqonsimon bez kasalliklari va o'pka gipertenzii ham yurak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yurak yetishmovchiligi yurak mushagining qisqarish qobiliyati kamayishi natijasida paydo bo'ladi. Bu esa quyidagi zanjirli jarayonlarga sabab bo'ladi:

- Yurak chiqish hajmi kamayadi → qon a'zolarga yetarli bormaydi;
- Buyraklarda qon ta'minoti pasayadi → suyuqlik ushlanadi;
- Qon hajmi ortadi → yurakka qo'shimcha yuk tushadi;
- O'pka kapillyarlarida qon to'planadi → nafas qisishi paydo bo'ladi;

Qon aylanishning kichik va katta doiralari buziladi. Ushbu jarayonlar asta-sekin surunkali yurak yetishmovchiligi (SYY) shaklida namoyon bo'ladi. Ba'zida keskin — o'tkir yurak yetishmovchiligi (OYY) ham rivojlanishi mumkin, bu esa hayot uchun xavfli holatdir.

Yurak yetishmovchiligining turlari.

1. Chap qorinchali yurak yetishmovchiligi – o'pka qon aylanishi buziladi, nafas qisadi, yo'tal, o'pka shishi kuzatiladi.

2. O'ng qorinchali yurak yetishmovchiligi – tana bo'ylab qon turg'unligi, shishlar, jigar kattalashishi, oyoqlarda og'irlik paydo bo'ladi.

3. Umumiy (ikkala qorinchali) – eng og'ir shakli bo'lib, barcha belgilar birgalikda kechadi.

Klinik belgilar (alamatlar) quyidagilar. Yurak yetishmovchiligining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Tez charchash, holsizlik, nafas qisishi, ayniqsa yotganda, oyoqlarda, qorin bo'shlig'ida shishlar (ascit), yurak urishining tezlashuvi (taxikardiya), ko'krakda og'riq, yurak sohasida bosim hissi, teri sarg'ayishi yoki oqarishi, tunda tez-tez siydikka chiqish (nyokturiya). Kasallikning kechishi yengil, o'rta yoki og'ir darajada bo'lishi mumkin. Tashxislash usullari esa asosan klinik belgilari va maxsus tekshiruvlar qon taxlillari asosida qo'yiladi.

Yurak yetishmovchiligini aniqlashda quyidagi laborator va instrumental usullar muhim ahamiyatga ega:

Anamnez yig'ish – bemor shikoyatlari, o'tmishdagi kasalliklari.

Jismoniy tekshiruv – yurak tovushlari, shishlar, nafas olish holati.

EKG (elektrokardiografiya) – yurak ritmi, infarkt izlari.

Echokardiyografiya (EKO) – yurak qisqarish kuchi, ejeksiya fraksiyasi.

Rentgen – yurak kattalashganini ko'rsatadi.

Laborator tahlillar – natriy, kaliy, kreatinin, BNP darajasi.

BNP (Brain Natriuretic Peptide) darajasi yurak yetishmovchiligi darajasini aniqlashda eng ishonchli biomarker hisoblanadi. Yurak yetishmovchiligini davolashning asosiy maqsadi — yurak faoliyatini yaxshilash, simptomlarni kamaytirish va hayot sifatini oshirishdir.

Dori vositalari bilan davo.

1. ACE ingibitorlari (Enalapril, Lisinopril) – qon bosimini tushiradi, yurak yuklamasini kamaytiradi.

2. Beta-blokatorlar (Bisoprolol, Metoprolol) – yurak urishini sekinlashtiradi, kislorod sarfini kamaytiradi.

3. Diuretiklar (Furosemid, Torasemid) – shishlarni kamaytiradi, suyuqlikni chiqaradi.

4. Yurak glikozidlari (Digoksin) – yurak qisqarish kuchini oshiradi.

5. Antikoagulyantlar – qon ivishining oldini oladi, tromb hosil bo'lishini kamaytiradi.

6. ARNI preparatlari (Sacubitril/Valsartan) – zamonaviy davo vositasi bo'lib, yurak faoliyatini barqarorlashtiradi.

Dori vositalaridan tashqari chora-tadbirlar. Tuz iste'molini cheklash (kuniga 3–5 g gacha). Suyuqlikni nazorat qilish (kuniga 1,5–2 litr). Ortiqcha jismoniy yuklamalardan saqlanish. Chekish va spirtli ichimliklardan voz kechish. Parhezda sabzavot, meva va yog'siz oqsillarni ko'paytirish. O'z vaqtida shifokor nazorati va EKG monitoring

Jarrohlik usullari. Ba'zi og'ir holatlarda. Yurak klapanlarini protezlash. Kardiostimulyator o'rnatish,

Yurak transplantatsiyasi amalga oshiriladi.

Profilaktika. Yurak yetishmovchiligining oldini olish uchun:

-Arterial bosimni nazorat qilish;

-Yurak uchun sog'lom ovqatlanish (kam yog', kam tuz);

-Stressni boshqarish, yetarli uyqu;

-Muntazam jismoniy faollik;

-Yurak kasalliklarini erta davolash muhimdir.

Xulosa: Yurak yetishmovchiligi — bu faqat yurak kasalligi emas, balki butun organizm faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi og'ir sindromdir. Uni erta aniqlash, zamonaviy dori vositalarini to'g'ri qo'llash va sog'lom turmush tarziga amal qilish orqali bemorlarning umrini sezilarli darajada uzaytirish mumkin. Tibbiyot xodimlari, ayniqsa bo'lajak shifokorlar uchun, yurak yetishmovchiligi patogenezini chuqur tushunish kasallikni samarali davolashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'.O. Jo'rayev, "Kardiologiya asoslari", Toshkent, 2020.
2. N.A. Abdurahmonov, "Ichki kasalliklar propedevtikasi", Toshkent, 2019.
3. M.T. Tursunov, "Yurak-tomir tizimi kasalliklari", O'zbekiston tibbiyot nashriyoti, 2021.
4. Sh. Karimova, "Farmakologiya", Toshkent, 2022.